

## KOREYS TILIDA HURMAT SHAKLI VA UNING MULOQOTDAGI O'RNI

Salimova Nigina Bahtiyorovna

KIUF o'qituvchisi, FDU mustaqil izlanuvchisi

Do Seon Hui

KIUF o'qituvchisi, filologiya fanlari PhD

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada muloqot xulqi koreys tilida hurmat shakli va uning darajalari o'rganildi. Koreys tilida hurmatni ifodalash uchun alohida so'zlar va grammatik qo'shimchalar mavjudligi va ularning qanday qo'llanilishi bayon etildi. Koreys tilida hurmat bilan birga pasaytirib gapirish shakli ham mavjudligi aniqlandi. Hurmat shakllari boshqa tillarga nisbatan koreys tilida juda murakkabligi hamda qat'iyiligi misollar bilan ko'rsatildi.

**Абстрактный:** В данной статье изучались форма уважения и его уровни в корейском коммуникативном поведении. Было объяснено существование специальных слов и грамматических дополнений для выражения уважения в корейском языке и то, как они используются. Было обнаружено, что в корейском языке наряду с уважением существует форма снисходительности. Формы уважения в корейском языке очень сложны и строги по сравнению с другими языками.

**Abstract :** In this article, the form of respect and its levels were studied in Korean communication behavior. The existence of special words and grammatical additions to express respect in the Korean language and how they are used were explained. In Korean, it was found that there is a form of condescension along with respect. Respect forms are very complex and strict in Korean compared to other languages.

**Tayanch so'zlar:** 존대법 – hurmat qoidalar, 존댓말/ 높임말 – hurmat shakli, 반말 – kamsitish shakli, 격식체 – rasmiy shakl, 비격식체 – norasmiy shakl, muloqot xulqi, urf-odatlar, milliy madaniyat, murojaat so'zlari, nutq madaniyati.

**Ключевые слова:** чондэбэб – правила уважения, чондэсмаль/ноп-аммаль – форма уважения, банмал – форма дискриминации, гэгсигче – формальная форма, бигэгсигче – неформальная форма, коммуникативное поведение, обычаи, национальная культура, слова обращения, культура речи.

**Key words:** jondaebob - rules of respect, jondaesmal/ nop-ammal - form of respect, banmal - form of discrimination, gyeogsigche - formal form, bigyeogsigche - informal form, communication behavior, customs, national culture, words of address, speech culture.

Yangi O'zbekiston, yangi Renessans bo'sag'asida o'zining umumjahon xalqlari o'rtasidagi o'rni va mavqegini anglashga intilayotgan kishilar tomonidan o'z-o'ziga berilgan va berilayotgan savollarga topilgan eng ixcham va ilmiy asosga ega javoblardan biri shuki,

insonning kimligi uning ikki jihati – xatti-harakati va so‘zi (nutqi), odamlar bilan o‘zaro muomalasida namoyon bo‘ladi .

Sharqning buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiyning to‘g‘ri so‘zlash, to‘g‘ri mantiqiy xulosa chiqarish, mazmundor va go‘zal nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning naqadar ahamiyati zo‘rligi haqida shunday yozadi: “Qanday qilib taolim berish va taolim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so‘rash va qanday javob berish masalasiga kelganimizda, bu haqda bilimlarning eng birinchisi jismlarga (substansiya – narsalar) va aksidensiya (hodisalar)ga ism beruvchi til haqidagi ilmlar deb tasdiqlayman<sup>34</sup>.

Muloqot ikki yoki undan ortiq odamlar o‘rtasidagi bilish yoki affektiv-baholash xususiyatiga ega bo‘lgan axborot almashinuvida ularning o‘zaro ta’sirlashuvi sifatida ta’riflanadi. Yoki: muloqot – odamlar o‘rtasida hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinuvi, o‘zaro ta’sirning yagona yo‘lini ishlab chiqish, boshqa odamni idrok qilish va tushunishdan iborat bo‘lgan aloqalarni o‘rnatish va rivojlatirishning murakkab, keng qamrovli jarayoni. Bu «muloqot» tushunchasining eng to‘liq va aniq ta’rifidir.

“Har bir til o‘zining ichki ko‘rinishida ma’lum bir dunyoqarashni yashiradi. Til jamoasiga mansub har bir kishi o‘z tajribasini o‘z ona tilining ichki shakliga ko‘ra hazm qiladi, shunga ko‘ra fikr yuritadi va harakat qiladi” (Leo Weisgerber, 1929). Xomskiy nomidagi Transformativ grammatika bo‘yicha ingliz olimi professor Mi-Kyung Kim nazarida, 21-asrda koreyslar dunyodagi eng demokratik alifbo bo‘lgan Hangeul bilan keskin demokratiklashuvga erishgan bo‘lsalar ham, eng nodemokratik grammatika bilan kurashmoqda. Muallif shuni anglab yetdiki, ‘존대법’ (Koreys tilida hurmat kategoriyasi yoki hurmat qoidalari) koreys tili grammatikasining o‘zagi va ayni paytda koreyslarning ongi va turmush tarzini o‘zgartirish manbaidir.

Koreys bolalariga ular tug‘ilgandanoq “Hurmat qoidalari” o‘rgatiladi. Bolalarga majburlanadigan hurmat qoidasi bu odamning undan yuqori shaxs ekanligini singdirish jarayonidir va shu bilan birga ularga ustun odam undan yuqori shaxs ekanligini o‘rgatadi, shuning uchun bola uni tinglashi kerak. Shu bilan birga, odamlarga ularning jamiyatdagi o‘rniga qarab munosabatini o‘zgartirish kerakligini uqtiradi. Hurmat qoidalari odamlarni mantiqiy fikrlashdan ko‘r o‘z boshliqlariga bo‘lgan munosabatini o‘ylashni birinchi o‘ringa qo‘yishga majbur qiladi va o‘z boshliqlari bilan teng munosabatlarda fikrlash va suhbatlashish chog‘ida ruhini sindiradi hamda fikrlash doirasini cheklab qo‘yadi.

Google tarjimon ham ‘연세가 어떻게 되십니까?’ yoki ‘너 몇 살이야?’ deb yozilsa, ikkalasining ham o‘zbek tiliga tarjimasini ‘Yoshingiz nechida?’, ingliz tilida ham bir xilda ‘How old are you?’ kabi ko‘rinishida bo‘ladi. Lekin koreyslar uchun koreys tilidagi bu ikki ko‘rinishdagi savollar butunlay boshqacha. Dunyodagi hech bir til yoki tarjimon koreys tilidagi ‘반말’ (senlash yoki hurmatsizlik shakli) o‘zida namoyon bo‘ladigan qo‘pollikni to‘liq izohlay olmaydi. Dunyo mavjud bo‘lgan 7000dan ziyod tillarning hech birida koreys tilichalik suhbatdoshni hurmat qiladigan - ‘존댓말’(sizlash yoki hurmat

<sup>34</sup> S. Mo‘minov. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari.-Farg‘ona:2021. 7b.

shakli) va aksincha kamsitadigan - ‘반말’ (senlash yoki hurmatsizlik shakli) shakllari xattoki o‘z qo‘llanish doirasidagi grammatik birliklariga ham ega emasdir. Koreys tili hurmat kategoriyasi bir vaqtning o‘zida xushmuomalalik va qo‘pollikni o‘z ichiga olgan antinomik tildir<sup>35</sup>.

o‘zbek tillida hurmat kategoriyasini yasovchi aynan qo‘shimchalar yoki so‘zlar mavjud emas. Faqatgina ot so‘z turkumidagi ko‘plik qo‘shimchasi –lar qo‘shimchasi otlarga qo‘shilganda hurmat ma‘nosini beruvchi so‘z yasab berishi mumkin. Ya‘ni dadamlar, oyimlar, buvimlar, tog‘amlar kabi so‘zlardagi ko‘plik yasovchi qo‘shimchalar ko‘plik ma‘nosida emas hurmat ma‘nosida ishlatiladi.

Koreys tilida hurmat shakli darajalari mavjud bo‘lib, ularni qo‘llash darajalari turlichadir.

격식체  Rasmiy shakl	합쇼체(아주높임) <small>Hurmatning yuqori darajasi</small>	-십시오, -시지요, -소서, -나이다, -버니다, -습/버니까, -올시다	예 • 미안합니다. <u>Uzr.</u> • 고맙습니다. <u>Tashakkur</u>
	하오체(예사높임) <small>Hurmatning oddiy darajasi</small>	-오, -소, -구려, -리다, -버시다	예 • 미안하오. • 고맙소.
	하계체(예사낮춤) <small>Pasaytirishning oddiy darajasi</small>	-(시)게, -세, -네, -나, -으이, -므세	예 • 미안하네. • 고맙네.
	해라체(아주낮춤) <small>Pasaytirishning quyi darajasi</small>	-아라/-어라, -(으)라, -구나, -느냐, -다, -자, -마, -니, -려무나(-렴)	예 • 미안하다. • 고맙다.
비격식체  Norasmiy shakl	해요체(두루높임) <small>Og‘zaki hurmat shakli</small>	-아요/-어요, -(지)요, -군요, -르게요, -르까요	예 • 미안해요. • 고마워요.
	해체(두루낮춤) <small>Og‘zaki pasaytirish shakli</small>	-아/-어, -야, -구먼, -군, -지	예 • 미안해. • 고마워.

Koreys tilida yoshi katta yoki lavozimi yuqori bo‘lgan kishilar haqida yoki ular bilan muloqot qilayotganlarida hurmatni ifodalovchi so‘zlardan foydalaniladi. Ya‘ni oddiy so‘zlardan o‘ta farqli bo‘lgan, o‘zagi butunlay boshqa ko‘rinishdagi so‘zlarni qo‘llash kerak:

죽다-돌아가시다- vafot etmoq: 할아버지께서 돌아가셨습니다.

있다-계시다- bor bo‘lmoq: 할머니께서 댁에 계십니다.

말하다 – 말씀하시다 – gapirmoq: 할아버지께서 말씀하십니다.

자다- 주무시다- uxlamoq: 아버지께서 주무십니다.

먹다-드시다-잡수시다- yemoq: 어머니께서 무엇을 드십니까?

주다 – 드리다 –bermoq: 어머니께 꽃을 드려요.

이름 – 성함 - ism: 아버지 성함이 어떻게 되세요?

나이 – 연세: 할머니 연세가 어떻게 되세요?

밥- 진지- ovqat: 할아버지께서 진지를 드십니다.

<sup>35</sup> 영어학자의 눈에 비친 두 얼굴의 한국어 존대법 | 김미경 지음 | 소명출판 | 241쪽.

생일- 생신- tug'ilgan kun: 어머니 생신이 언제예요?

집-댁-uy: 할머니께서 댁에 계세요.

말-말씀-gap: 할아버지 말씀을 들어요<sup>36</sup>.

Muloqot jarayonida ushbu so'zlardan to'g'ri foydalanmaslik qo'pol xato hisoblanadi. Koreyslar buni yoqtirmaydilar. Aksincha kesatliq bilan yoshi kichiklarga hurmat so'zlari bilan javob qaytarishlari va bu bilan noto'g'ri gapirganini bildirib qoyishadi.

Yuqoridagi kabi o'zagi boshqa bo'lmagan fe'l va sifatlarga '- (으)시', '-(으)세요' qo'shimchasini qo'shish orqali hurmat ifodalanadi.

가다	가십니다	가세요	Ketyaptil ar
앉다	앉으십니다	앉으세요	O'tiryaptilar
건강하다	건강하십니다	건강하세요	Sog'lar

Koreys tilining yana bir o'ziga xos jihati unda bosh kelishikda ham qo'shimcha borligidir. Bosh kelishik qo'shimchasi '-이/-가' yoki '-은/-는' bo'lib, uning ham hurmat shaklidagi qo'shimchasi mavjud: '-께서'.

형이 회사에 갑니다. – Akam firmaga ketyapti.

아버지께서 회가에 가십니다<sup>37</sup>. – Dadamlar firmaga ketyaptilar.

Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi '-에게/-한테' bo'lib, uning hurmat shakli '-께' dir.

친구한테 선물을 주어요. – Do'stinga sovg'a beryapman.

선생님께 선물을 드려요. – Ustozimga sovg'a beryapman.

Chiqish kelishigi qo'shimchasi '-에게서, -한테서' bo'lib, uning hurmat shakli '-께로부터' dir.

동생한테서 돈을 받았어요. – Ukamdan pul oldim.

아버지께로부터 돈을 받았어요. – Dadamdan pul oldim.

Murojaat qilinganda ham ismlarga '씨' qo'shib murojaat qilinadi va shu bilan hurmat ifodalanadi.

수미 씨, 언제 한국에 오세요? – Sumi xonim, qachon Koreyaga kelasiz?

Murojaat qilishda hurmat uchun yana bir qo'shimcha '-님' bo'lib, odatda kasb so'zlariga kishilarning lavozimini anglatuvchi so'zlarga qo'shib qo'llaniladi.

사장 - 사장님- direktor, 교수 - 교수님 – professor; 변호사 – 변호사님 – advokat.

사장님, 출장 잘 다녀오셨습니까? – Direktor janoblari, safarga yaxshi borib keldingizmi?

Bundan tashqari birovga xat yozganda hurmat ma'nosida '귀하' – 'siz' so'zi ishlatiladi<sup>38</sup>.

<sup>36</sup>한국어초급II. 선문대 한국어 교육원. 2020. 55쪽.

<sup>37</sup>한국어초급II. 선문대 한국어 교육원. 2020. 58쪽.

<sup>38</sup> <https://m.blog.naver.com/PostView.naver?isHttpsRedirect=true&blogId=sskn6627&logNo=220619787498>

Vatan, mamlakat, oila, ota-ona, kabi so'zlar bilan egalik olmoshi qo'llanilganda mening emas, balki bizning - '우리' qo'shimchasidan foydalaniladi. Bu esa hurmat hamda ko'pchilikka tegishlilikni anglatadi. Lekin bu o'zbek tilida g'aliz tuyulganligi sababli mening deb tarjima qilish to'g'ri hisoblanadi.

우리 가족 – mening(bizning) oilam, 우리 아버지 – mening(bizning) otam kabi<sup>39</sup>.

Xulosa qilib aytadiganda, Sharq mamlakatlari muloqot xulqi, muomala madaniyati bilan ajralib turadi. Yuqoridagi ma'lumotlarga tayangan holda shuni aytish mumkinki, koreys xalqi ham kattalarni hurmat qilish va e'zozlashga katta ahamiyat berishar ekan. Koreys tilida hurmat shakli boshqa mamlakatlar tillariga qaraganda ancha farqli va murakkab hamda qat'iydir. Ushbu mavzu orqali koreys xalqining hurmat shakliga qat'iy e'tibor berishi va bu orqali koreys xalqining til madaniyatini o'rganish bizning pirovard maqsadimizdir. Muloqot xulqi muammosini milliy xarakter, millatning o'ziga xos urf-odatlarini, qadriyat va an'alarini hisobga olmasdan turib o'rganish mutlaqo mumkin emas. Chunki muloqot xulqi millat xarakterining uzviy bir qismi bo'lib, ular bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Yuqorida ko'rib o'tilgan mavzu yuzasidan o'zbek va koreys xalqining bir-biriga qiyoslaydigan bo'lsak, ko'p jihatdan bir-biri bilan o'xshab ketadi. Ikki xalq orasida ham kattalarni hurmatlash, ularga nisbatan ehtiromli muomalada bo'lish, katta va kichiklarga bo'lgan munosabatlardagi farqlar ham bir-birini taqozo qilishi sezilib turadi. Bolalarni yoshligidanoq hurmat qilishga o'rgatish masalasi ham ikki xalqning o'xshash an'alaridan ekanligini ham bilish mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S. Mo'minov. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari.- Farg'ona:2021.
2. Bozorov O. O'zbek tilida darajalanish.-Toshkent:Fan, 1995. 132b.
3. '우리' 개념과 존칭어 사용을 통해 문화 교육. 교수 하스믹 카바비안. 예레반 국립 언어 대. 2018. 2쪽.
4. 한국어 초급 II. 선문대 한국어 교육원. 2020.
5. 가족관계. 김정옥, 박귀영 외 3명 저. 양서원 / 2012.
6. C. Kang, Y. Ro, J. Kim and H. Choi (2018). "Symbolizing Numbers to Improve Neural Machine Translation," JDCS, Vol. 19, No. 6, pp. 1161-1167.
7. C. Lee, D. Lee, Y. Hur, K. Yang, and H. Lim (2018). "Comparing Byte Pair Encoding Methods for Korean," The 30th Annual Conference on Human and Language Technology, p. 293-294.
8. <http://www.hozir.org/tilshunoslik-kafedrasi-ilmiy-ish-asoslari.html?page=4>
9. [https://www.thinkzon.com/share\\_report/1053497](https://www.thinkzon.com/share_report/1053497)
10. <https://wordbokjinet.tistory.com>

<sup>39</sup> '우리' 개념과 존칭어 사용을 통해 문화 교육. 교수 하스믹 카바비안. 예레반 국립 언어 대. 2018. 2쪽.